

NUTQIY SEMATIKA VA KO'CHIMLAR

Durdibayeva Munisa Xudaybergan qizi

Ellikqal'a pedagogika fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Baxtiyarova Gulnigor Ilxom qizi

Ellikqal'a Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi talabasi

Tangirberganova Ma'mura Otaxon qizi

Ellikqal'a Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada nutqiy sematika va ko'chimlar haqida, so'zning odatiy ma'noda o'zga ma'noda qo'llanilishi yani sematik sathdan og'ishi haiqda, ko'chim turlari va ko'chimning badiiy nutqda eng samarali qo'llanadigan turi haqida so'z boradi va metafra, metanimya, sinekdoxaxalar haqida qisqacha ma'lumot berib o'tiladi.

Abstract: This article is about speech semantics and migrations, the use of the word in a different sense from the usual meaning, i.e. deviation from the semantic level, the types of migration and the most effective way of migration in artistic speech. It talks about the type of speech and provides brief information about metaphor, metonymy, and synecdoche.

Аннотация: В данной статье речь идет о речевой семантике и миграциях, употреблении слова в смысле, отличном от обычного значения, т.е. об отклонении от семантического уровня, видах миграции и наиболее эффективном способе миграции в художественной речи. тип речи и дает краткую информацию о метафоре, метонимии и синекдохе.

Tayanch tushunchalar: sematika, ko'chim, ko'chim turlari, sinekdoxa, so'z, metafra, metanimya, sinekdoxa

Basic concepts: semantics, migration, types of migration, synecdoche, word, metaphor, metonymy, synecdoche

Основные понятия: сематика, миграция, виды миграции, синекдоха, слово, метафора, метонимия, синекдоха.

Bilamizki, nutq jarayonida, xususan, badiiy nutqda so'zlar o'z va ko'chma ma'noda qo'llanilib kelinadi. So'zning aynan o'z ma'nosidan ko'chma ma'noda qo'llanilishi sematik sathdagi og'ish deb qaraladi. Aynan ko'chma ma'noda qo'llanadigan so'zlar adabiyotlarda „ko'chim“ deb nomlanadi. Ko'chimga sinonim tarza adabiyotlarda „trop“ atamasi ham qo'llaniladi. „Tropp“ atamasi yunonchadan olingan bo'lib, „ko'chim“ degan ma'noni anglatadi.

Ko'chim eng ko'p ishlatiladigan badiiy vositalardan biridir. Ijodkorlar biror so'zga xos lug'aviy ma'noni boshqasiga ko'chirishar ekan, o'z fantaziyalardan kelib

chiqib, tavakkaliga ish tutavermaydilar. Ammo modernizm talabiga ko‘ra ayrimijodkorlarda bundayholatuchrab turadi. Shu bois ko‘pchilik kitobxonlar mazkur yo‘nalishdagi ijod namunalarini tushunishda qiyinchilikka uchrashadi. Tabiiyki, ma’no ko‘chirishda narsa-hodisalar o‘rtasida yo ichki, yo tashqi, yoki mazmun o‘xshashligi, aloqadorligi bo‘lishi shart. Bu jihatdan ko‘chimlar o‘xhatish(tashbeh)ga juda yaqin turadi. Lekin asosiy farq shundaki, o‘xhatishda ham o‘xshagan, ham o‘xhatilgan narsa yoki shaxs ifodalangan bo‘ladi. Ko‘chimda esa ba’zan o‘xshagan narsa, ba’zan o‘xhatilgan narsa ifodalanib, ikkinchi qismdagi ma’no birinchisiga ko‘chiriladi. [1]

Badiiy asrlarning ta’sirchanligini oshiruvchi yozuvchi va shoirlar mahoratini namoyon qiluvchi ko‘chim mumtoz adabiyotimizda ham qo‘llanilib kelingan. Biz ko‘chim va trop istilohlarining bugungi kun adabiyotlarida sinonim tarzda qo‘llanilib kelishini bildik. Mumtoz adabiyotimizda esa aynan ushbu tushunchani anglatish uchun „majoz“ istilohi qo‘llanilib kelingan. Abdulloh Husayniy „majoz“ ga quyidagicha ta’rif bergan : „... majoz haqiqatning ziddidur . Haqiqat lafzni o‘z yasog‘i, ya’ni nimani mo‘ljallab yasag‘an bo‘lsalar o‘shul ma’noda qo‘llamoqtin iboratdур. Majoz lafzni o‘z yasog‘idin o‘zga ma’noda yasog‘u lafzu o‘shul ma’no orasindagi biror aloqayu munosabatqa asoslanaroq qo‘llamoqtin iborattur, o‘z yasog‘ida tushunmakka moni‘ bo‘lguchi jumladoshini keltirmak sharti bila. Masalan, qo‘l derlar va ko‘pincha qudrat zuhuri qo‘l bila amalg‘a oshg‘anlig‘ig‘a asoslanib andin qudratni iroda qilurlar. Sher derlar yuraklig kishi sherg‘a o‘xshag‘anlig‘ig‘a asoslanib, andin yuraklik kishini iroda qilurlar“ .[2]

Badiiy nutqda ishlatiluvchi ko‘chimlar qo‘llanish faolligi , badiiy uslub bo‘yoqdorligi, estetik ta’sir kuchi kabi jihatlardan bir-biridan jiddiy farqlanadi:

- ko‘chimlarning bir qismi allaqachon til hodisasiga aylanib ketgan. Masalan, „kun botdi“, „soat yuryapti“ kabi birikmalarda qachonlardir so‘z ma’nosining o‘xshashlik asosida ko‘chgani aniq. Faqat biz ularga shu qadar ko‘nikin ketganmizki, hozirda ularga ko‘chim deb qaramaymiz...

- an'anaviy tarzda ishlatilib kelayotgan ba shu bois muayyan darajada turg‘unlik kasb etgan ko‘chimlar ham badiiy nutqda ko‘plab uchraydi;

- badiiy-estetik funksiyadorligi, tasviriylik va ifodavaiylik kuchaytirishi jihatidan muayyan matn o‘ramidagina ko‘chma ma’no kasb etuvchi , muallifning assotsiativ fikrashi mahsuli o‘laroq dunyoga jelgan ko‘chimlar alohida o‘rin tutadi. Ular shartli ravishda „xususiy mualkif ko‘chimlar“ i dab yuritiladi.[3]

Bugungi kunda adabiyotlarda ko‘chimning turlari haqida keng ma'lumotlar berilgan. Maktab darsliklarida ham bu mavzuga alohida to‘xtalib o‘tilinadi. Ko‘chimning asosiy turlari sifatida metafra, metanimya, sinekdoxa ko‘rsatilinib kelinadi. Bundan tashqari adabiyotlarda ko‘chimning turlari: kinoya, mubolag‘a, litota, perifraz haqida ham ma'lumotlar mavjud.

Narsa-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik asosida metafra, o‘zaro aloqadorlik asosida metanimya, ziddiyatlar asosida kinoya, qism va butun munosabatlari natijasida sinekdoha yuzaga keladi. Masalan:

Derazamga uriladi qor

Jaranglaydi jaransiz kumush, -

misralarda metafraning ma'nou ko‘lami juda kuchli . Bu yerda aynan o‘xshahslik tasvirlangan, yani qorning kumushga o‘xshatilishi.

O‘zbek adabiyoti namoyondalari aynan so‘zlani o‘z o‘rnida chiroyli tarzda qo‘llish bilan birga, ularni ko‘chma ma’noda ham ko‘p o‘rinda qo‘llab asarlari jozibasini orttirmoqda. Ayniqsa buni she’riyatda yaqqol sezish mumkun. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon , Rauf Parfi va boshqa ko‘plab yozuvchila ijodida bu holatni kuzatish mumkin. O. Karimov Abdulla Oripov she’riyatdagi ko‘chimlarni, o‘xshatishlarni o‘rgangan va bu borada „, Abdulla Oripov she’riyatda metaforik obrazlar “ nomi bilan o‘z izlanishlarini qoldirgan.

Umuman olganda ko‘chimlar adabiyotda katta ahamiyatga ega . Badiiy asarlarda so‘zlarning ko‘chma manoda qo‘llanilishi, kinoya, mubolag'a orqali badiiylikni orttirish asrning ta'sirchanligini oshiradi va o‘quvchilarni o‘ziga jalb qilib, tafakkurini o‘stiradi, tilning jozibasini, so‘zning ta'sirchanligini orttiradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Dedaxanova M . „, Ko‘chim turlarining tipologik aspekti“ 2022
2. Abdulloh Husayniy „, Badoyi us- sanoi“ . T: 1981- yil. 219- bet
3. Quronov D. „,Adabiyot nazariyasi asoslari “ . Toshkent 2019-yil. 192-bet.